ISSN
3060-527X

№6
2026

TA’LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

TA’LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

Международный научно-методический журнал

PROSPECTIVE RESEARCH IN EDUCATION

International scientific methodological journal

№ 6-Son, 1-Qism 2026-yil

Jurnal 2025-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta nashr etiladi

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

Muallif	Mavzu nomi	Bet
Ashrapov Nodirbek Namoz o‘g‘li	Ta’lim jarayonida tafakkurni rivojlantirish usullari va ularning o‘qish faoliyatidagi ahamiyati	4
Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi	Qizlarda erta nikohning sabablari va chet eldagi ijtimoiy vaziyatlar: psixologik-nazariy tahlil	9
Mahkamova Nozima To‘ra qizi Jabborova Malohat Azimovna	Raqamli autizmni oldini olishda ota-onaning tutgan o‘rni	15
Qoraboyev Fazliddin Faxriddinovich	Og‘ir atletikachilarning texnik va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish	18
Rasulkhojayeva Madina Akhmadjonovna	Factors and methods for forming environmental attitudes in students of psychology and pedagogy	24
Tursunova Gulbahor Sharofovna	Talabalarning ekologik xavfsizlik kompetensiyasilarini rivojlantirish zarurati	31
Narzulloyeva Jasmina Jo‘rabek qizi	Talabalar dual ta’lim tizimiga moslashuvining pedagogik-psixologik xususiyatlari	36
Babajanov Maqsadbek Ulug‘bekovich	Mehnat jamoalarida ish stressi va diqqatning konsentaratsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik	41
Qo’yliyev Ulug’bek Ravshanovich	Tarix fani o‘qituvchilarida analitik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik determinantlari	49
Sulaymonova Munira Abdukarim qizi	Ayollarda tashqi qiyofa transformatsiyasining psixologik omillari va oilaviy munosabatlarga ta’siri	54
Matkarimova Nodira Egamberganovna	Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional va xulq-atvor muammolarini art-terapiya vositasida korreksiya qilish	59
Xudoyberganova Maqsuda Jumaniyazovna	Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarda psixologik farovonlikning namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari.	65
Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li	Erkin kurashchilarning muvoffaqiyatga erishishning motivatsiyaga ta’siri va psixologik xususiyatlari	71
Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna	Etnopedagogik materiallar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash	75
Piraliyev Omiljon Kabilovich	Talabalarda o‘quv jarayoniga moslashishning motivatsion omillari	80
Otakulova Dilorom Azimjonovna	O‘spirinlarda kiberzo‘ravonlikning psixologik omillari va uning oldini olish strategiyalari	85
Atadjonova Dinora Ulug‘bekovna	O‘quvchilar o‘zlashtirmovchiligini korreksiya qilishda art-terapiya (kognitiv-xulq-atvor terapiyasi) usullarining samaradorligi	90
Aytmuratov Baxtiyar Turganbaevich	Interfaol ta’lim texnologiyalarining talabalarda refleksiv va metarefleksiv tafakkurni rivojlantirishdagi imkoniyatlari	95
Sanjar Gaipov Yusupbaevich	Oliy ta’limda bo‘lajak psixologlarning kasbiy imidjini shakllantirish texnologiyalari	101

A.K Shamshetova	Pedagoglar faoliyatining samaradorligini oshiruvchi psixologik omillar	105
Teshayev Sobit Sodik o‘g‘li	Rahbarlarda oila–kasb muvozanatini ta’minlashda qadriyatlar tizimining omilli tuzilishi va uning ijtimoiy-Psixologik ahamiyati	109
Mardonov Mavlon	Talabalarda internetga tobelikning psixologik xususiyatlari va unga ta’sir etuvchi omillar	117
Sharipova Kumri Tolibjonovna	Umumiy o‘rta ta’lim maktabi rahbarlarida strategik boshqaruv kompetentligini shakllantirishning psixologik determinantlari	123
Ulug‘ova Shahlola Musliddinovna	Mehnatga moslashuv jarayonining psixologik bosqichlari	128
Ganjiyev Feruz Furqatovich	Agressiv o‘smirlarning muloqot sifatlari bilan shaxs xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar.	131
Ne’matov Oybek Erkin o‘g‘li	Ta’limni raqamlashtirish sharoitida o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasining ijtimoiy-psixologik va pedagogik xususiyatlari	136
Madumarova Gulnora Sobirovna	Raxbar va xodimlarning psixologik xususiyatlari	142
Jo‘rayeva Gulandom Murodullo qizi	O‘quvchilar jamoasidagi verbal agressiyani profilaktika qilishning milliy-ma’naviy manbalari	147
Jumayev Furqat Shodmonovich	Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik jarayonida motivatsiyaning roli va uni rivojlantirish usullari	151
Asqarov Rahmatjon Rahimovich	Harbiy xizmatchilar hayotining turli bosqichlarida ijtimoiy moslashuvning shaxsiy va psixologik xususiyatlari.	156
Il’yasova Dilshoda Akmal qizi	Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didini tarbiyalashning psixologik ahamiyati	160
Akbarova Umidakhon	Identifying individual characteristics in differentiated instruction	164
Axmedova Munavvar Numanjanovna	Nutq buzilishlari mavjud bolalarda emotsional intellektning ijtimoiy moslashuvdagi roli	169
Avezov Davronbek Soburovich Boboyarova Nargiza Ashurovna Abdirimov Inoyatbek Ahmedovich	Boshlang‘ich ta’lim talabalarida innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasining psixologik asoslari.	174
Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich	Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishda o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillari	180
Bozorov Aziz Abloqulovich	Harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida liderlik kompetensiyalarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	184
Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li	Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat samaradorligini oshirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari	191

Burteshova Aliya Burxonovna	O’quvchilarni mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etishning psixologik determinatlari	196
Ismatova Halovat Baxtiyorovna	O‘smirlar o‘rtasida destruktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari va uni korreksiyalash mexanizmlari	200
Norqulova Sevara O‘roz qizi	Talabalarning intellektual va kognitiv faolligini treninglar orqali rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	205
PEDAGOGIKA		
Nishanova Dildora Komiljanovna	Dinshunoslik fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	210
Xonboboyeva Shoira Rafikovna	Polifunksional so'zlarning tilshunoslikda o'rganilganlik darajasi	216
Sharipov Olimjon Oripovich	Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining milliy identikligini rivojlantirishda tarixiy xotira konsepsiyasining pedagogik o‘rni	223
Jumanov Sherzod	Maktabda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishning funksional resurslari	229
Shermamatova Sevara O’ktamjon qizi Alijonova Maxturaxon Ravshanbek qizi	Symbolism and collective identity in nathaniel hawthorne’s “the gray champion”	235
Salimov G‘ayrat Muxamedovich Boymurodova Niginabonu A’zam qizi	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari yuqori guruh tarbiyalanuvchilarini maktab ta’limiga tayyorlashda jismoniy sifatlarning o‘rni va ahamiyati	243
Sobirov Zuhriddin Najmiddin o‘g‘li	XX asr boshi jadid darsliklarida diniy ta’lim mazmuni	248
Kabulov Rustam Jumaniyozovich	Ibn Battuta sayohatnomasida O‘rta Osiyo ziyoratgohlari: XIV asr musulmon jamiyatining diniy-ma'naviy hayoti tahlili	253
Azamat Sharipov	“Turkiy integratsiya” masalasi	259
Yusufova Gulhayo Nosirxon qizi	Axborot-reseptiv metodi yordamida nutqni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	266
Xamidova Diyora Jamshedovna	Sharq mutafakkirlarining o‘qituvchining muloqoti haqidagi fikrlari	272
Jo‘rayeva Mohidilxon Soxibjon qizi	Integrativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional va ichki regulyatsiya jarayonlarini rivojlantirish	277
Rasulov Bekzod Uktamovich	Methodology for developing design competence of future teachers in digital educational environment	283
Munisa Karimova	Strategies for effective lesson planning	288
Qudratbek Maxmudov	Xalqaro reyting mezonlari asosida oliy ta’lim sifatini baholashning nazariy tamoyillari	295

Nishanova Dildora Komiljanovna
Oriental Universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti v.b.
E-mail:dnishanova1987@gmail.com
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0009-8946-8323

DINSHUNOSLIK FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada dinshunoslik fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Bugungi kunda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, bag‘rikenglik va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni katta ahamiyat kasb etmoqda. Dinshunoslik fanining o‘ziga xos xususiyati - turli diniy ta’limotlar, tarixiy jarayonlar, madaniy hodisalar va ijtimoiy munosabatlarni xolis ilmiy asosda o‘rganishni talab etadi. Shu sababli mazkur fanni o‘qitishda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish va boshqa zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhimdir. Maqolada pedagogik texnologiyalarning talabalarning bilim olish faolligini oshirish, diniy jarayonlarni chuqur anglash hamda ilmiy tafakkurni rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *dinshunoslik, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, ta’lim jarayoni, innovatsion yondashuv, diniy bilimlar, ilmiy tafakkur, axborot texnologiyalari, talaba kompetensiyasi, zamonaviy ta’lim.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical aspects of the use of modern pedagogical technologies in the process of teaching religious studies. Today, the role of pedagogical technologies in increasing the effectiveness of the educational process, in forming independent thinking, analytical approach, tolerance and scientific outlook in students is of great importance. The specific feature of religious studies is the study of various religious teachings, historical processes, cultural phenomena and social relations on an objective scientific basis. Therefore, it is important to use interactive methods, information and communication technologies, problem-based learning, project-based learning and other modern pedagogical approaches in teaching this subject. The article highlights the possibilities of pedagogical technologies in increasing students' activity in acquiring knowledge, in-depth understanding of religious processes and in developing scientific thinking.*

Key words: *religious studies, pedagogical technology, interactive methods, educational process, innovative approach, religious knowledge, scientific thinking, information technologies, student competence, modern education.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования современных педагогических технологий в процессе преподавания религиоведения. Сегодня роль педагогических технологий в повышении эффективности образовательного процесса, формировании у учащихся самостоятельного мышления, аналитического подхода, толерантности и научного мировоззрения имеет большое значение. Специфика религиоведения заключается в изучении различных религиозных учений, исторических процессов, культурных явлений и социальных отношений на объективной научной основе. Поэтому важно использовать интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, проблемно-ориентированное обучение, проектное обучение и другие современные педагогические подходы в преподавании этого предмета. В статье освещаются возможности педагогических технологий в повышении*

активности учащихся в усвоении знаний, углубленном понимании религиозных процессов и развитии научного мышления.

Ключевые слова: *религиоведение, педагогические технологии, интерактивные методы, образовательный процесс, инновационный подход, религиозные знания, научное мышление, информационные технологии, компетентность учащихся, современное образование.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida jamiyatning barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham yangi yondashuvlar, innovatsion metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarni, jumladan, dinshunoslik fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Dinshunoslik fani jamiyatdagi diniy jarayonlarni, turli dinlarning shakllanishi va rivojlanishini, diniy qarashlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini ilmiy asosda o‘rganadi. Mazkur fan talabalarni diniy hodisalarga xolisona yondashishga, turli konfessiyalar faoliyatini tushunishga hamda diniy bag‘rikenglik tamoyillarini anglashga xizmat qiladi. Shu jihatdan dinshunoslik fanini o‘qitishda faqat an’anaviy ma’ruza usullaridan foydalanish yetarli emas, balki talabalarni faol fikrlashga undaydigan ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish talab etiladi. Pedagogik texnologiya - bu ta’lim jarayonini oldindan loyihalashtirish, belgilangan maqsadlarga samarali erishishni ta’minlaydigan metod, vosita va usullar majmuasidir[1:26]. U ta’lim oluvchining faolligini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi. Dinshunoslik fanida pedagogik texnologiyalardan foydalanish talabalarning diniy-tarixiy jarayonlarni chuqur anglashiga, manbalar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirishga va mustaqil ilmiy xulosalar chiqarishiga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Dinshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biri - diniy hodisalarni ilmiy, tarixiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qilishdir. Bu fan diniy e’tiqodlarni targ‘ib qilish emas, balki ularni ilmiy tadqiq etish, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini tushuntirishga qaratilgan. Talabalarga dinshunoslik bilimlarini berishda muhim jihatlardan biri - ularda tanqidiy fikrlash va tahliliy yondashuvni shakllantirishdir. Chunki din masalalari tarix, madaniyat, siyosat, falsafa va jamiyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab hodisa hisoblanadi. Shuning uchun dars jarayonida talabalarni faqat nazariy ma’lumotlar bilan ta’minlash emas, balki ularni mustaqil izlanishga, ilmiy manbalarni tahlil qilishga va o‘z fikrlarini asoslashga o‘rgatish zarur [2:48].

Adabiyotlar sharhi. Dinshunoslik fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini o‘rganishda zamonaviy pedagogika, ta’lim metodikasi hamda diniy-ma’naviy jarayonlarga oid ilmiy manbalar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va innovatsion metodlardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. R.J. Ishmuhamedov, A.A. Abduqodirov va A.H. Pardaevlarning “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” kitobida zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Mualliflar ta’lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlar, o‘quv jarayonini loyihalashtirish, talabani faol subyekt sifatida shakllantirish masalalariga urg‘u beradilar. Mazkur yondashuvlar dinshunoslik fanini o‘qitishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarni diniy hodisalarni tahliliy va ilmiy asosda o‘rganishga yo‘naltiradi. O‘.Q. Tolipov va M. Usmonboyevalarning “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari” nomli qo‘llanmasida pedagogik texnologiyalarning mazmuni, tamoyillari va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda ta’lim jarayonida maqsadga yo‘naltirilgan texnologik yondashuv, interfaol usullar va o‘quv faoliyatini tashkil etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Bu metodik yondashuvlar dinshunoslik fanida munozara, bahs, muammoli ta’lim va mustaqil tadqiqot metodlarini qo‘llash uchun ilmiy asos yaratadi. M. Ochilovning “Yangi pedagogik texnologiyalar”

asarida ta’lim tizimida yangi pedagogik qarashlar, o‘qituvchi va talaba faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi hamda ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari yoritilgan. Muallif pedagogik jarayonda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi. Ushbu fikrlar dinshunoslik fanida talabalarni mustaqil fikrlashga, diniy va tarixiy jarayonlarga ilmiy yondashishga o‘rgatishda muhimdir.

V. Klarinning “Pedagogicheskie texnologii i obrazovatelnye protsessy” asarida pedagogik texnologiya tushunchasi, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni va metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif pedagogik texnologiyani faqat o‘qitish vositasi emas, balki ta’lim jarayonini rejalashtirish va boshqarish tizimi sifatida baholaydi. Ushbu nazariy qarashlar dinshunoslik fanini o‘qitishda ham ta’lim jarayonini tizimli tashkil etish imkonini beradi. G.K. Selevkoning “Sovremennye obrazovatelnye texnologii” asarida zamonaviy ta’lim texnologiyalarining turlari, xususan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, muammoli o‘qitish, rivojlantiruvchi ta’lim va axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Mazkur ilmiy yondashuvlar dinshunoslik fanida talabalarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirish, ularning tahliliy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda katta imkoniyat yaratadi. An’anaviy ta’lim modelida asosiy e’tibor o‘qituvchining bilim berish faoliyatiga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlarda talaba ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Dinshunoslik fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish talabalarni faol muloqotga, fikr almashishga va muammoli vaziyatlarni hal qilishga jalb qiladi. Masalan, “Aqliy hujum”, “Munozara”, “Klaster”, “Keys-stadi”, “Bahs-munozara” kabi metodlar orqali talabalar diniy jarayonlarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [4:56; 3:31]. Masalan, “Din va jamiyat munosabatlari” mavzusini o‘rganishda talabalarni guruhlarga ajratib, turli tarixiy davrlarda dinning jamiyatdagi o‘rnini tahlil qilish topshirig‘i berilishi mumkin. Bu usul talabalarni mustaqil fikrlashga va ilmiy dalillar asosida xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Bugungi raqamli davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Dinshunoslik fanini o‘qitishda elektron resurslar, multimedia vositalari, virtual kutubxonalar va taqdimotlardan foydalanish darslarning samaradorligini oshiradi. Masalan, diniy-madaniy obidalar, tarixiy manbalar, qo‘lyozmalar yoki turli diniy an’analar haqidagi videomateriallardan foydalanish talabalar uchun mavzuni yanada tushunarli va qiziqarli qiladi. Vizual materiallar murakkab tarixiy va diniy jarayonlarni osonroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, elektron platformalar orqali talabalar mustaqil ravishda ilmiy maqolalar, kitoblar va tadqiqot materiallari bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi[6:18]. Muammoli ta’lim texnologiyasi talabalarda muayyan masala yuzasidan mustaqil fikr yuritish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Dinshunoslik fanida diniy ekstremizm, bag‘rikenglik, dinlararo munosabatlar, diniy meros kabi dolzarb masalalarni muammoli vaziyat sifatida o‘rganish mumkin. Loyiha asosida o‘qitish esa talabalarni ilmiy faoliyatga yaqinlashtiradi. Talabalar kichik ilmiy loyihalar tayyorlash orqali manbalar bilan ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va ilmiy taqdimot qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Masalan, “O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy meros” yoki “Markaziy Osiyoda diniy tafakkur rivoji” mavzularida loyihalar tashkil etish orqali talabalar tarixiy manbalarni o‘rganish va ilmiy xulosa chiqarishga o‘rganadilar.

Dinshunoslik fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalar nafaqat bilim berish, balki talabalarda muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan:

axborotni izlash va tahlil qilish kompetensiyasi;

mustaqil fikrlash qobiliyati;

ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalari;

muloqot va bahs yuritish madaniyati;
diniy bag‘rikenglik va madaniyatlararo hurmat.

Mazkur kompetensiyalar bugungi kunda yetuk mutaxassis tayyorlashning muhim shartlaridan biridir.

Dinshunoslik fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning qo‘llanish imkoniyatlari				
№	Pedagogik texnologiya turi	Qo‘llash usuli	Dinshunoslik fanidagi amaliy ahamiyati	Kutiladigan natija
1	Interfaol ta’lim metodlari	Munozara, bahs-munozara, “Aqliy hujum”, “Klaster” metodlari	Diniy jarayonlar, konfessiyalararo munosabatlar, diniy bag‘rikenglik masalalarini turli nuqtayi nazardan tahlil qilish imkonini beradi	Talabalarda mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv shakllanadi
2	Muammoli ta’lim texnologiyasi	Muammoli savollar, keys-stadi, vaziyatli topshiriqlar asosida dars tashkil etish	Diniy ekstremizm, radikalizm, sekulyarizm, din va jamiyat munosabatlari kabi dolzarb mavzularni chuqur o‘rganishga yordam beradi	Talabalarning ilmiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmasi rivojlanadi
3	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	Multimedia, elektron taqdimot, videodarslar, raqamli manbalar	Diniy obidalar, tarixiy manbalar, diniy-madaniy jarayonlarni vizual tushuntirish imkonini yaratadi	Mavzuni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi
4	Loyiha asosida o‘qitish	Mustaqil ilmiy loyihalar, taqdimotlar, tadqiqot ishlari	Talabalarni diniy-tarixiy manbalarni o‘rganish va ilmiy izlanishga yo‘naltiradi	Ilmiy-tadqiqot kompetensiyalari shakllanadi
5	Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi	Guruhli ishlar, jamoaviy topshiriqlar	Turli diniy ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish, fikr almashish imkonini beradi	Muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko‘nikmasi rivojlanadi
6	Masofaviy ta’lim texnologiyasi	Elektron platformalar, onlayn kurslar, virtual seminarlar	Dinshunoslik bo‘yicha qo‘shimcha ilmiy resurslardan foydalanish imkonini beradi	Mustaqil ta’lim olish imkoniyati kengayadi
7	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim	Individual topshiriqlar, talaba qiziqishiga asoslangan yondashuv	Talabalarning diniy-tarixiy mavzularga individual yondashuvini rivojlantiradi	Ijodiy fikrlash va shaxsiy pozitsiya shakllanadi
8	Klaster va konseptual xaritalash	Tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni grafik ko‘rsatish	Din, madaniyat, jamiyat, tarix tushunchalarining o‘zaro aloqasini anglashga yordam beradi	Tizimli bilim shakllanadi

Jadvaldan ko‘rinadiki, dinshunoslik fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalar nafaqat ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, balki talabalarda ilmiy dunyoqarash, bag‘rikenglik, mustaqil fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish diniy hodisalarni xolis va ilmiy asosda tushuntirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa va takliflar. Dinshunoslik fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, talabalarni faol o‘quv jarayoniga jalb etish hamda ularning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalar bilimini mustahkamlash bilan birga, ularda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mazkur fanning o‘ziga xos jihati shundaki, u talabalarni diniy hodisalarga xolis va ilmiy yondashishga, turli din va konfessiyalarga hurmat ruhida munosabat bildirishga hamda bag‘rikenglik tamoyillarini anglashga o‘rgatadi. Shu sababli ushbu fanni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotiga, fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga va diniy-ma’rifiy savodxonligining ortishiga ham xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan davrda talabalarni turli yot g‘oyalar va diniy manipulyatsiyalardan himoya qilishda ham dinshunoslik fanining o‘rni beqiyosdir. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan dars mashg‘ulotlari talabalarni tanqidiy fikrlashga, axborotlarni tahlil qilishga va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Natijada ularda diniy masalalarga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabat shakllanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Dinshunoslik fanini o‘qitishda interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar ulushini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

Dars jarayonlarida multimedia vositalari, elektron platformalar va raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim.

Talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb etish maqsadida loyiha ishlari, seminarlar, munozaralar va ilmiy to‘garaklar faoliyatini rivojlantirish zarur.

Dinshunoslik fanidan o‘quv-uslubiy majmualarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish tavsiya etiladi.

Professor-o‘qituvchilarning innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llash bo‘yicha malakasini muntazam oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, dinshunoslik fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, yuksak ma’naviyatli, keng dunyoqarashli, bag‘rikeng va ijtimoiy mas’uliyatni his etadigan yosh avlodni tarbiyalashning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2006.
2. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.H. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
3. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: 2000.

5. Кларин М.В. Педагогические технологии и образовательные процессы. - Москва: Знание, 1989.

6. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. - Москва: Народное образование, 1998.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2017.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2020.

9. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2014.

10. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.